Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Внедрение антикоррупционных стандартов ISO в узбекистане	1558
Исмаилов Б.И., Зокиров С.Б.	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	



KORXONA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KOMPLEKS YONDASHUVI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Xalilov Bekzod Axmatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarni samarali boshqarish va uning samaradorligini baholashning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy raqobat muhitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Maqolada samaradorlik tushunchasining mazmuni, uning ichki va tashqi ko'rsatkichlari, baholash mezonlari hamda turli olimlarning nazariy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, korxona faoliyati samaradorligini baholashda iqtisodiy, tashkiliy va marketing ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish va baholash tizimini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ilmiy ishlar tahlillari orqali boshqaruvning strategik samaradorligini oshirish uchun zarur omillar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: korxona boshqaruvi, samaradorlik, iqtisodiy tahlil, strategik boshqaruv, axborot texnologiyalari, KPI ko'rsatkichlari.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of effective enterprise management and performance evaluation. It highlights the necessity of enhancing enterprise competitiveness in today's competitive environment through the implementation of information and communication technologies. The paper explores the concept of efficiency, its internal and external indicators, assessment criteria, and various theoretical approaches proposed by scholars. Furthermore, it offers recommendations for developing an evaluation system based on the integrated analysis of economic, organizational, and marketing performance indicators. Based on the analysis of academic literature, the article identifies key factors essential for improving the strategic effectiveness of management.

Key words: enterprise management, efficiency, economic analysis, strategic management, information technology, KPI indicators.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические основы эффективного управления предприятиями и оценки их результативности. Отмечается необходимость повышения конкурентоспособности предприятий в современных условиях конкуренции посредством внедрения информационно-коммуникационных технологий. В статье раскрывается содержание понятия «эффективность», рассматриваются его внутренние и внешние показатели, критерии оценки, а также теоретические подходы различных учёных. Кроме того, приведены рекомендации по формированию системы оценки, основанной на взаимосвязанном анализе экономических, организационных и маркетинговых показателей деятельности предприятия. На основе анализа научных исследований определены ключевые факторы, способствующие повышению стратегической эффективности управления.

Ключевые слова: управление предприятием, эффективность, экономический анализ, стратегическое управление, информационные технологии, показатели KPI.

KIRISH

XXI asr – “Intellectual va axborotlar asri” deb e'tirof etilayotgan bugungi globallashuv va raqobatbardoshlik muhitida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va ularni raqobatbardosh holda boshqarish har qachongidan ham ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar, bozor sharoitidagi keskin o'zgarishlar, raqobatchilarning harakatlari va mijozlar talabining oshishi korxonalar oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Bunday sharoitda korxonalarning faoliyat samaradorligini baholash, tahlil qilish va oqilona boshqarish jarayoni strategik ahamiyatga ega vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham korxonalarni raqobatbardosh holda boshqarish, samaradorlikni oshirish va innovation yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “Raqamli O'zbekiston – 2030” dasturi, “Aqlli shahar” konsepsiyasi va raqamli iqtisodiyotni joriy etishga oid normativ hujjatlar mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyotning turli sohalariga tatbiq etishni yanada jadallashtirmoqda¹. Bu esa korxonalarga faoliyat

1 <https://lex.uz/uz/docs/5030957>



samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etish bilan birga, zamonaviy boshqaruv modellarini talab etmoqda.

Ta'kidlash joizki, samaradorlik tushunchasi iqtisodiy va boshqaruv fanlarida ko'p qirrali mazmunga ega bo'lib, "natija", "samara", "sifat" kabi atamalar bilan chambarchas bog'liq. P.Druker, V.Pareto, A.B.Borisov, R.S.Kaplan, I.Ansoff kabi taniqli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflar bu tushunchaning ko'plab jihatlarini yoritib bergan. Shu bilan birga, samaradorlikni aniqlashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki tashkiliy, marketing, resurslardan foydalanish darajasi, mijozlar qoniqishini baholash, xizmat sifatini nazorat qilish kabi ko'plab ko'rsatkichlar ham muhim o'rin tutadi.

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda boshqaruv samaradorligini baholash tizimi etarlicha shakllanmagan, ko'pincha o'rtacha ko'rsatkichlarga tayanilgan holda baholash amalga oshiriladi. Bunday yondashuv esa tashkilotning to'liq salohiyatini namoyon etmaydi, muammolarni barvaqt aniqlash va echim topish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli samaradorlikni kompleks va tizimli baholash, ya'ni iqtisodiy, tashkiliy va marketing jihatlarini qamrab olgan ko'rsatkichlar orqali baholash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Ushbu maqolada aynan shu masalalarning nazariy va amaliy asoslari, xalqaro va mahalliy ilmiy qarashlar asosida tahlil etilib, samaradorlikni baholashga doir ko'rsatkichlar, baholash usullari hamda ularni qo'llash amaliyotida yuzaga keladigan muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or yondashuvlar, KPI ko'rsatkichlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar sharhi. Korxonalarni samarali boshqarish va faoliyat samaradorligini baholash masalalari iqtisodiyot va menejment sohasidagi eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzuda mahalliy va xalqaro miqyosda ko'plab olimlar tomonidan nazariy asoslar ishlab chiqilgan, turli yondashuvlar ilgari surilgan va samaradorlikni baholashning uslubiy asoslari shakllantirilgan.

Piter Druker samaradorlikni menejment faoliyatining asosiy vazifasi sifatida ko'rib chiqib, uni tashkilot maqsadlariga erishishda resurslarning oqilona va tejamlil foydalanilishi bilan bog'laydi. Uning "Doing the right things" tamoyili strategik boshqaruvning asosiy mohiyati sifatida qabul qilinadi. Drukerga ko'ra, samaradorlikning asosiy mezon – belgilab olingan maqsadlarga erishish darajasi va bu jarayonda sarflangan xarajatlar bilan bog'liq hisoblanadi.

V.Pareto va D.Rikardo tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy samaradorlik nazariyalari klassik siyosiy iqtisod yo'nalishlariga taalluqli bo'lib, "qiyosiy ustunlik" va "optimal taqsimot" tushunchalariga asoslangan. Ular samaradorlikni bozorda resurslar taqsimotining samarali bo'lishi orqali baholaydi. V.Paretoning "optimallik nuqtasi" tushunchasi bugungi kunda ham resurslardan samarali foydalanishni baholashda dolzarb hisoblanadi.

E.M. Korotkov esa boshqaruv samaradorligini tashkilot rahbariyatining kasbiy mahorati, strategik qarorlar qabul qilish qobiliyati va monitoring jarayonlarini to'g'ri tashkil etish bilan bog'laydi. U samaradorlikni ko'p qirrali va tizimli yondashuv orqali baholashni taklif etadi.

L.A. Naskina nazariy qarashlarida samaradorlikni natija va xarajatlar nisbati orqali o'lchashni taklif qiladi. Uning fikricha, samaradorlik koeffisienti – bu iqtisodiy faoliyat samaradorligini aniqlashdagi muhim mezon bo'lib, uni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali baholash mumkin. Shu bilan birga, samaradorlikni faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki tashkiliy va marketing ko'rsatkichlar bilan birgalikda tahlil qilish kerakligiga urg'u beradi.

Xalqaro tajribalarga murojaat qilar ekanmiz, R.S. Kaplan va D.P. Norton tomonidan taklif etilgan Balanced Scorecard (BSC) modeli korxonalar faoliyatini to'rt yo'nalish: moliyaviy ko'rsatkichlar, mijozlar nuqtai nazaridan samaradorlik, ichki jarayonlar samaradorligi va o'quv-ta'lim salohiyati asosida baholashni nazarda tutadi. BSC modeli korxonalarda strategik boshqaruvni samarali tashkil etish va barcha bosqichlarda baholash tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Igor Ansoff esa strategik boshqaruv va biznes muhitini tahlil qilishni samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida ko'radi. U ekstropolyasiya va ssenariylar tahlili asosida prognozlashni taklif etadi, bu esa korxona istiqbollari aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning modeli korxonaning tashqi muhitga moslashish qobiliyatini baholashga yo'naltirilgan.

Maykl Porterning qarashlarida esa samaradorlikning asosiy manbai sifatida innovatsiyalarga va uzluksiz yangilanishga urg'u beriladi. Uning "raqobat ustunligi" nazariyasiga ko'ra, korxona o'z faoliyatini faqat ichki resurslarga emas, balki bozor sharoitiga moslashuv va texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga asoslanishi lozim. Mahalliy tadqiqotchilardan R.S. Muratov, I.A. Djalolova va S.Sh. Oripovlar tomonidan korxonalarning iqtisodiy barqarorligi, moliyaviy ko'rsatkichlari va boshqaruv shakllari chuqur tahlil qilingan. Ular korxonalarni tashkil etish, boshqarish, samaradorlikni baholash va tahlil qilish mexanizmlarini kompleks yondashuv asosida ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

I.O. Ulashev va Sh.A. Atamuradov boshqaruv usullarini tanlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqqan. G.Sh. Xonkeldieva esa korporatsiyalardagi ichki boshqaruv ko'rsatkichlarini baholash, rag'batlantirish tizimini takomillashtirish va ularni samaradorlik bilan bog'lash mexanizmlarini ishlab chiqqan.



Shuningdek, R.R. Abduraupov xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar faoliyatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, xatarlarni kamaytirish va barqaror samaradorlikka erishish borasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili korxona faoliyati samaradorligini baholashdagi yondashuvlar xilma-xilligini, sohaviy o'ziga xosliklarni va har bir olimning qarashlari orqali tashkilotning strategik rivojlanish imkoniyatlarini to'g'ri baholash mumkinligini ko'rsatadi. Maqolada ushbu nazariy qarashlar amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan holda tahlil qilingan va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Natija. Olib borilgan tahlillar va ilmiy nazariyalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlashda yagona va universal ko'rsatkich mavjud emas. Samaradorlikni baholash ko'p qirrali yondoshuvni talab etadi, ya'ni faqat iqtisodiy natijalar emas, balki tashkiliy, resurslardan foydalanish darajasi, xizmat sifati, mijozlar qoniqishini ham qamrab olgan kompleks tizim yaratilishi zarur. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) keng joriy etilayotgan sharoitda korxonalarda boshqaruv samaradorligini real vaqtda tahlil qilish va nazorat etish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa har bir tashkilot uchun strategik qarorlar qabul qilishda yangi talablar qo'ymoqda.

Misol sifatida hozirgi kunda korxonalar o'zining uchta asosiy tamoyili asosida faoliyatini olib bormoqda:

- yuqori malakali mutaxassislardan yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali bozor ulushini oshirish;
- ishonchli etkazib beruvchilar bilan ishlash orqali samaradorlikni oshirish;
- har bir xodimning kasbiy savodxonligini oshirish orqali martaba o'sishini ta'minlash.

Zamonaviy sharoitda kompaniya doimiy ravishda texnik jihatdan murakkab bozorni kuzatib borish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish zarurati bilan duch kelmoqda. Tashkilot faoliyatining doimiy monitoringi zarurligini hisobga olgan holda, biz nafaqat moliyaviy, balki korxona faoliyatining tashkiliy va marketing qismlarini baholash uchun ko'rsatkichlar guruhini taklif qilish mumkin(qarang:1.1-jadval).


1- jadval. Korxona faoliyati samaradorligini baholash uchun qo'shimcha ko'rsatkichlar.

Baholash yo'nalishi	Ko'rsatkichlarning nomlanishi	Hisoblash qonuniyati (formulasi)
Kompaniya nufuzi	Marjinal daromad ulushining o'rtacha o'sish sur'ati yangi mijozlarni jalb qilish hisobiga (davr uchun), K, %	MD - yangi mijozlarni jalb qilidan olingan marjinal daromad, 1 - hisobot davri 0 - oldingi davr
Xizmat ko'rsatilganidan so'nggi fao-liyat yuki	Yuklatilganlik darajasi, Yd, %	Tb - band bo'lgan vaqt Siv - smenaning umumiy ish vaqti
Bir davrda xizmat ko'rsatish samara-dorli ko'rsatkich-larini hisoblash	Foyda, bir davr xizmat ko'rsatish	Xs - xizmatdan olingan umumiy foyda, Xd - xizmat ko'rsatilgan davrlar soni;
Mehnat unumdorligi	Natural (Mu - nat.) Qiymat ko'rinishida (Q)	Mx - tahlil qilinayotgan davrda xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, birlik; lks - xodimlarning o'rtacha soni.

Korxonaning samaradorligini baholash tarkibiy bo'linmalarning ishlash ko'rsatkichlari, yalpi foyda va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi, shuningdek, o'rtacha ko'rsatkichlarni tahlil qilish bilan cheklanganligi sababli ko'rsatilgan xizmatlarning narxi, samaradorlikning har tomonlama ko'rinishini olish mumkin emas. Faoliyatni baholash tizimini tashkil etish bo'yicha biz taklif qilgan tavsiyalar ushbu muammoni korxona uchun maqbul tarzda hal qilish imkonini beradi.



1- rasm - Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

2- rasm. Korxona faoliyati samaradorligini hisobga olgan holda baholash tizimi².

Xulosa qilib, yuqorida biz tomonimizdan olib borilgan manbalarga tayanib aytishimiz mumkinki, korxonaning faoliyat sohasidan qat'iy nazar, samaradorligini oshirish va uni baholash tizimi faoliyatning iqtisodiy, tashkiliy va marketing jihatlarini albatta qamrab olishi kerak. Bunda samaradorlik natijalari va mijozlar ehtiyojini qondirish o'rtasidagi bog'liqlik tamoyiliga tayaniladi. Bu bizga korxonani maksimal darajada rivojlantirish uchun ustuvor vazifalarga, jumladan foydani minimallashtirish, bozor ta'sirini kengaytirish, sanoatda ishbilarmonlik obro'sini saqlash va mustahkamlash kabi erishish imkoniyatini beradi. Bunday holda, faoliyat ko'rsatkichlarini tanlashda muhim omillar - faoliyat ko'lam (kichik, o'rta, yirik biznes), boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan vazifalar turlari (operativ, joriy, strategik), zarur tahliliy ma'lumotlarning mavjudligi. ma'muriy va boshqaruv xodimlarining malakasini baholash, qarorlar qabul qilishni markazlashtirish va markazsizlashtirish darajasini hisobga olgan holda aloqalarni tashkil etish, o'z vaqtida tahlil qilish imkonini beradigan zarur texnik vositalar bilan ta'minlashdan iborat. Faoliyatni baholash tizimi tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini, uni zarur resurslar bilan ta'minlashni hisobga olgan holda shakllanishi va uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarga erishish darajasini o'lchash imkonini berishi lozim. Bu bevosita korxona faoliyati samaradorligini oshirishda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llashda yuqorida qayd etilganlarni albatta hisobga olishni taqozo etadi.

² Рaсм муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, korxonalar samaradorligini baholash tizimi bugungi kunda faqat moliyaviy natijalarga asoslangan ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Tashkilotning bozordagi mavqeini mustahkamlash, raqobatbardoshligini oshirish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatishga intilishi faqat kompleks yondashuv, ya'ni iqtisodiy, tashkiliy va marketing jihatlarini qamrab olgan samaradorlik ko'rsatkichlarini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Maqolada taklif qilingan ko'rsatkichlar marjinal daromad o'sish sur'ati, xizmat yuki darajasi, mehnat unumdorligi, xizmatdan olingan foyda – korxona faoliyatining turli jihatlarini to'liq baholashga xizmat qiladi. Bu esa tashkilotga strategik va joriy qarorlar qabul qilishda asoslangan ma'lumotlarga tayanish imkonini yaratadi.

Samaradorlikni to'g'ri baholash va aniq natijalarga erishish uchun quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- korxona faoliyatining ko'lam va turi;
- boshqaruv tizimidagi qaror qabul qilish jarayonlari;
- xodimlarning malakasi va ish yuki;
- axborot texnologiyalari va tahliliy vositalardan foydalanish darajasi.

Shu asosda aytish mumkinki, korxonada samaradorlikni baholash tizimining shakllantirilishi – uning strategik maqsadlarga erishishini ta'minlovchi muhim vositadir. U nafaqat mijozlar ehtiyojini qondirish va ichki tashkiliy faoliyatni takomillashtirish, balki barqaror rivojlanish va bozordagi obro'ni saqlab qolishda ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, taklif etilgan ko'rsatkichlar va baholash mexanizmlari tashkilotga o'z faoliyatini keng qamrovli, xolis va samarali baholash, va eng muhimi istiqbolda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Drucker, P. F. (1993). *Managing for results*. HarperBusiness.
2. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The Balanced Scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press.
3. Ansoff, H. I. (1987). *Corporate strategy*. Penguin Books.
4. Porter, M. E. (1985). *Competitive Advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press.
5. Pareto, V. (1971). *Manual of political economy*. Augustus M. Kelley Publishers. (Original work published 1906)
6. Ricardo, D. (1817). *On the principles of political economy and taxation*. John Murray.
7. Naskina, L. A. (2004). Effektivnost' upravleniya i ee pokazateli. *Ekonomicheskii analiz: teoriya i praktika*, 10(19), 45–51.
8. Korotkov, E. M. (2001). *Upravlenie effektivnostyu*. Moscow: INFRA-M.
9. Муратов, Р. С., Джалолова, И. А., & Орипов, С. Ш. (2020). *Boshqaruv nazariyasi asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
10. Ulashev, I. O., & Atamuradov, Sh. A. (2021). Korxonalarni boshqarish mexanizmlari va ularning samaradorligi. *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 3(17), 77–84.
11. Xonkeldieva, G. Sh. (2019). Korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda tahlil mexanizmlari. *Moliyaviy tahlil jurnali*, 2(9), 33–41.
12. Abduraupov, R. R. (2022). Hozirgi davrda qo'shma korxonalarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. *Iqtisodiyot va boshqaruv muammolari*, 1(6), 18–25.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>